

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi navoiy viloyati binosi to'g'risida ma'lumot

Navoiy viloyatida test sinovlarini o'tkazish uchun Navoiy shahri "Yoshlik" MFYda joylashgan Bilim va malakalarni baholash agentligining binosi 2025-yil iyun oyida qurib birkazilgan.

Binoning test sinovlarini o'tkazish zalida **1080 ta** o'tirish o'rniga ega bo'lgan stul-stullar to'liq joylashtirilgan va raqamlangan, guruh tablichkalari, kuzatuv kameralari, sovitish va shamollatish tizimlari tayyor holatga keltirib qo'yilgan.

Mazkur binoda bir smenada **1080 nafar**, bir kunda esa **2160 nafar** abituriientlar test topshirish imkoniyatiga ega.

Test sinovlari bo'lib o'tadigan bino va hududga targ'ibot va yo'l ko'rsatgich banerlar, guruh tablichkalari va boshqa ko'rgazmali banerlar to'liq o'rnatib qo'yilgan.

Binosida **75 ta videokuzatuv** kameralari (*statstionar kamera 50 ta, onlayn kuzatish uchun 3 ta, videofiksatsiya uchun 4 ta, 2 ta 360 gradusli va 16 ta tegishli hududlarga*) o'rnatilgan hamda test sinovlari jarayonini **test2025.uz** sayti orqali to'g'ridan-to'g'ri efirga uzatib borish bo'yicha "Xafsiz shahar" tomonidan ishlar to'liq yakunlangan.

Test sinovlari jarayonlarini belgilangan tartib bo'yicha o'tkazish, jamoat xavfsizligini ta'minlash, abituriientlarni tekshirib kiritish maqsadida ichki ishlar organlari, milliy gvardiya, FVB xodimlari jalb qilingan.

Shuningdek, Navoiy davlat universiteti tomonidan **32 nafar** volontyorlar jamoasi, **8 nafar** tibbiyot xodimlari hamda **4 nafar** elektr energiya bo'yicha mas'ul xodimlar jarayonga jalb etilishi rejalashtirilgan.

Navoiy viloyati hokimligi tomonidan test sinovlarini yuqori saviyada tashkil etish va o'tkazish bo'yicha barcha zaruriy chora-tadbirlar amalga oshirilgan bo'lib, test sinovlari o'tkaziladigan binolar to'liq tayyor holatga keltirilgan.

2025/2026 o‘quv yilida kirish test sinovlariga tayyorgarlik holatini o‘rganish natijalari bo‘yicha
MA’LUMOTNOMA
(Navoiy viloyatidagi test sinovlari o‘tkaziladigan binolar)

T/r	Topshiriq mazmuni	Ijro holati
1.	Test sinovlari o‘tkaziladigan katta sig‘imli binolarning holati va ularni yetarli miqdorda bir o‘rinli stol-stul va sovitish moslamalari bilan jihozlanganligi.	Navoiy viloyatida test sinovlari Navoiy shahri “Yoshlik” MFYda joylashgan Bilim va malakalarni baholash agentligining Navoiy viloyatdagi binosi (1-bino A sektor, 2-bino B sektor) hamda Navoiy shahri A.Navoiy ko‘chasi 35a-uyda “Kimyogar” sport majmuasi sport zali (3-bino)da o‘tkazilishi belgilangan. Binolarda abituriyentlar hamda test sinovlariga jalb etilgan xodimlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Binolarga yetarli miqdorda <i>(1650 dona abituriyentlar uchun, 55 dona guruh nazoratchilari uchun)</i> stol-stullar to‘liq joylashtirilgan, guruhlarga bo‘lingan, guruh tablichkalari va stol-stullar to‘liq raqamlangan. Yetarli miqdorda sovitish <i>(1-2-binoda 32 dona, 3-binoda 34 dona jami 66 dona konditsioner)</i> moslamalari va shamollatish tizimi bilan jihozlangan.
2.	Test sinovlari o‘tkaziladigan katta sig‘imli binolarga UPS – zaxira elektr manbai bilan ta‘minlovchi uskunalari o‘rnatilganligi.	Test sinovlari bo‘lib o‘tadigan binolarga 2 dona UPS — zaxira elektr manbai o‘rnatilgan.
3.	Test sinovlari o‘tkaziladigan katta sig‘imli binolarni tayyorlash hamda ularga borish yo‘nalishlarida yo‘l ko‘rsatkichlarining o‘rnatilganligi.	Test sinovlari o‘tkaziladigan bino to‘liq test sinovlariga tayyor holatga keltirilgan. Binoga, sektorlarga hamda ota-onalar kutish joylariga borish yo‘nalishlarida yo‘l ko‘rsatkichlari o‘rnatilgan.
4.	Test sinovi o‘tkaziladigan hududlarda abituriyentlarning ota-onalari hamda keng jamoatchilikka soya-salqin joylarda kutish joylarining tashkil etilganligi.	Ota-onalar hamda keng jamoatchilik uchun test sinovlari bo‘lib o‘tadigan Bilim va malakalarni baholash agentligining Navoiy shahridagi binosi yaqinidagi 20-maktabning majlislar zali, oshxonasi va foy‘esida 500 o‘rinli kutish joylari tayyorlangan. Undan tashqari bino hududida 500 o‘rinli kutish joylari tayyorlanmoqda. “Kimyogar” sport majmuasiga yaqin joydagi “Soy” kafesining 2 ta katta zallarida 600 o‘rinli kutish joylari tayyorlangan.

5.	Kutish joylariga test sinovlarini onlayn tarzda kuzatish uchun katta monitorlarning o'rnatilganligi.	Kutish joyida test sinovlarini onlayn tarzda kuzatish uchun katta hajmli monitorlar o'rnatilgan.
6.	Test sinovlari o'tkaziladigan hududlarda shtablar tashkil etilganligi.	Test sinovlari o'tkaziladigan binolarda shtablar tashkil qilingan hamda zarur jihozlar (<i>stol-stul, shkaf, seyf, internet, telefon, kompyuter, printer, skaner apparati, kontstovar mahsulotlari</i>) bilan ta'minlangan.
7.	Test sinovlari o'tkaziladigan hududlarda test sinovi o'tkaziladigan binolar va guruhlar joylashuvi haqida ma'lumot beruvchi banerlar tashkil etilganligi.	Test sinovi o'tkaziladigan hududlarda guruhlar joylashuvi, "Korrupsiyaga qarshi kurashish", "Abiturientlar harakati reja chizmasi", "Taqiqlangan vositalar", "Abiturientga ko'makchi xizmati", "Abiturientlarning narsa buyumlarini olib qolish joyi ("A" sektor, "B" sektor), "Ota-onalar kutish joyi", "Omad senga abiturient" hamda guruhlariga yo'naltiruvchi va ma'lumot beruvchi banerlar o'rnatilgan.
8.	Test sinovlari o'tkaziladigan binolarda tibbiyot punktlari tashkil etilganligi.	Binolarda tibbiyot xonalari tashkil etilgan va zarur tibbiy jihozlar bilan ta'minlangan. Tibbiyot xonalari sovetlash tizimi bilan ta'minlangan.
9.	Test sinovlari o'tkaziladigan binolarda yong'in xavfsizligi choralari ko'rilganligi.	Binolarda yong'in xavfsizligi choralari ko'rilgan. Tegishli joylarga yong'inga qarshi kurashish jihozlari o'rnatilgan. Favqulodda holatlarda binolardan chiqib ketish uchun yetarli miqdorda qo'shimcha eshiklar mavjud.
10.	Test sinovlari o'tkaziladigan binolarning elektr ta'minoti holati.	Binolar hududida 4 ta transformator (1000 kv) mavjud bo'lib, zaxira elektr tarmog'i bilan ta'minlangan.
11.	Test sinovlari o'tkaziladigan hududlarga va binolarga abiturientlarni kiritish joylarining holati va ularning zarur vositalar bilan jihozlanganligi. Bunda:	
11.1	abiturientlarning test sinovlari o'tkaziladigan hududlarga kirishi va chiqishi uchun o'tkazish posti va punkti tashkil etilganligi;	abiturientlarning test sinovlari o'tkaziladigan hududga kirishi va chiqishi uchun o'tkazish posti va punktlari tashkil etilgan . Ayol abiturientlarni hududga tekshirib kiritish uchun maxsus shirmalar tayyorlangan.
11.2	test sinovlari o'tkaziladigan hududlarga kirishda abiturientlar to'planishida tartibni saqlash bo'yicha ko'rilgan choralar;	test sinovlari o'tkaziladigan hududlarga kirishda abiturientlar to'planishida tartibni saqlash bo'yicha viloyat hokimligi, IIB va MG tomonidan tegishli choralar ko'rilgan va binolarga kirish hududlari maxsus temir to'siqlar bilan o'rab olingan.
11.3	test sinovlari o'tkaziladigan hududlarga kirishda abiturientlarning ortiqcha jihozlarini olib qolish va saqlash joyi tashkil etilganligi;	Bilim va malakalarni baholash agentligining Navoiy shahridagi binosiga Navoiy davlat universiteti tomonidan test sinovlari o'tkaziladigan hududga kirishda guruh nazoratchilari va abiturientlarning ortiqcha jihozlarini olib qolish va saqlash uchun mas'ul xodimlar birlashtirilgan.

		“Kimyogar” sport majmuasiga Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tomonidan test sinovlari o‘tkaziladigan hududga kirishda guruh nazoratchilari va abituriyentlarning ortiqcha jihozlarini olib qolish va saqlash, shuningdek ruxsatnomalarni chop etib berish uchun mas’ul xodimlar biriktirilgan. Zarur texnika va jihozlar 13 iyul kuni o‘rnatiladi.
11.4	abituriyentlar shaxsini identifikatsiya qilish qurilmalari o‘rnatilgan joylar va shaxsni identifikatsiya qilish qurilmasining shaxsni identifikatsiya qilish hududlari abituriyentlarning o‘tishi uchun qulayligi;	Binolarga kirishda abituriyentlar shaxsini identifikatsiya qilish qurilmalari (<i>jami 8 ta</i>) talab darajasida o‘rnatilgan.
11.5	abituriyentlar shaxsini identifikatsiya qilish qurilmalari o‘rnatilgan joylardagi shaxsni identifikatsiya qilish qurilmasining shaxsni identifikatsiya qilish hududlari quyosh nuridan holi joyda joylashganligi yoki soyabonlar bilan jixozlanganligi;	Shaxsni identifikatsiya qilish hududlari quyosh nuridan holi joyda joylashgan, kirish joylari jalyuzi pardalar bilan to‘silgan.
11.6	test sinovlari o‘tkaziladigan hududlarning kirish postida Ichki ishlar vazirligining shaxsini identifikatsiya qilish qurilmalari (planshet) bilan ta’minlanganligi.	Test sinovlari o‘tkaziladigan hududlarning kirish postida Ichki ishlar vazirligining shaxsini identifikatsiya qilish qurilmalari (planshet) bilan ta’minlash test sinovi boshlangan kundan amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Bu bo‘yicha mas’ul xodimlar ajratilgan.

Ishchi guruh rahbari

Maktabgacha va maktab ta’limi
vaziri o‘rinbosari

S.Radjabov

Ishchi guruh a’zolari:

Navoiy viloyati hokimi o‘rinbosari

J.Xodjaev

Navoiy viloyati Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar boshqarmasi boshlig'i

F.To'xtaev

Bilim va malakalarni baholash agentligi
Navoiy viloyati bo'lim boshlig'i

N.Bekniyozov

“O'zenergoinspektsiya”ning Navoiy hududiy
boshqarmasi boshlig'i

B.Shomurodov